

## V. XIZMATLAR

Iqtisodiyotning muhim tarmoqlaridan biri bo'lgan xizmatlar sohasining ahamiyati katta va dolzarb hisoblanadi. Ishlab chiqarish jarayonlarining tobora murakkablashib borayotganligi, bozorni kunlik va individual talablarga mos iste'mol tovarlari bilan to'ldirish, innovatsion rivojlanishning jadal o'sishi jamiyat hayotining yangilanishiga olib keladi. Bu axborot, moliya, transport, sug'urta va boshqa turdag'i xizmatlarsiz amalga oshmaydi.

Xizmatlar sohasida 16,7 mingdan ortiq korxonalar va tashkilotlar faoliyat ko'rsatmoqda, ushbu ko'rsatkich o'tgan yilning mos davriga nisbatan 103,4 % ni tashkil etdi. Yangi korxona va tashkilotlarni tashkil etish, shuningdek, faoliyat yuritayotgan korxona va tashkilotlar tomonidan innovatsion texnologiyalardan foydalanish va ko'rsatilayotgan xizmatlar ro'yxatini kengaytirish kelgusida ish o'rinalarini ko'paytirish va aholi farovonligini oshirishga yordam beradi.

**Xizmatlar sohasiga taaluqli faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar  
va tashkilotlar soni, birlikda**

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari) 2023 yil 1 oktabr holatiga



**Savdo-7 414**



**Boshqa turdag'i  
xizmatlar- 6 106**



**Yashash va ovqatlanish  
bo'yicha xizmatlar  
1 335**



**Tashish va saqlash-951**




**Sog'lijni saqlash- 488**



**Axborot va aloqa- 455**

**2023 yilning 1 oktabr holatiga korxona va tashkilotlarning umumiy sonida  
xizmatlar sohasida faoliyat ko‘rsatayotganlarning ulushi, % da**  
(*fermer va dehqon xo‘jaliklaridan tashqari*)



2023 yil 1 oktabr holatiga xizmatlar sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlar tarkibida eng yuqori ulushni savdo faoliyati bilan shug‘ullanuvchi korxona va tashkilotlar 44,3 % tashkil etadi.

Yashash va ovqatlanish sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlarning ulushi 8,0 % ni tashkil etdi.

Xizmatlar sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlarning umumiy sonida tashish va saqlash faoliyati bilan shug‘ullanayotgan korxona va tashkilotlarning ulushi 5,7 % ni tashkil etmoqda.


Sog‘liqni saqlash sohasida faoliyat yuritayotgan va ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatuvchi korxonalar va tashkilotlarning ulushi 2,9 % ni tashkil etdi.

Axborot faoliyati bilan shug‘ullanuvchi va aloqa xizmatlarini ko‘rsatuvchi korxonalar va tashkilotlar ulushi 2,7 % ga teng bo‘ldi.

2023 yilning yanvar-sentabrida bozor xizmatlari ishlab chiqarishning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha hajmi 9 015,1 mldr. so'mni tashkil qilib, 2022 yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan o'sish 109,2 foizni tashkil etdi, shu jumladan qishloq joylarida 1 926,0 mldr. so'm yoki umumiy ko'rsatilgan xizmatlar hajmining 21,4 foizini tashkil etdi.

Xizmatlar tarkibida jami xizmatlarning eng katta ulushi, transport xizmatlari (24,3 %), moliyaviy xizmatlar (23,7 %), savdo xizmatlari (21,1 %), ta'lim sohasidagi xizmatlar (5,9 %) va boshqa xizmatlar (25,0 %) hissasiga to'g'ri keldi.

### **2023 yil yanvar-sentabr oylarida ko'rsatilgan xizmatlar tarkibi, % da**



**Yanvar-sentabr oylarida bozor xizmatlari ishlab chiqarishning  
 iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha taqsimlanishi**

	<i>faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar soni</i>	<i>mlrd. so‘m</i>		<i>o‘sish sur’ati, %</i>	<i>yakunga nisbatan foiz hisobida</i>
		<i>2023 y.</i>	<i>2022 y.</i>		
<b>Jami xizmatlar</b>	<b>8 069</b>	<b>9 015,1</b>	<b>7 527,7</b>	<b>109,2</b>	<b>100,0</b>

*shu jumladan xizmat  
 turlari bo‘yicha:*

aloqa va axborotlashtirish xizmati	148	495,1	400,0	122,3	5,5
--	-----	-------	-------	-------	-----

moliyaviy xizmatlar                    81                    2 139,4                    1 615,4                    120,8                    23,7

transport xizmati	721	2 186,2	1 974,5	103,6	24,3
-------------------	-----	---------	---------	-------	------

*shu jumladan:*  
 avtotransport  
 xizmatlari                                559                            1 096,6                            930,2                            104,4                            12,2

yashash va ovqatlanish xizmatlari	738	228,9	178,4	103,6	2,5
--------------------------------------	-----	-------	-------	-------	-----

savdo xizmatlari                            4494                            1 900,5                            1 566,8                            109,8                            21,1


ko‘chmas mulk bilan bog‘liq bo‘lgan xizmatlar	236	203,8	178,3	105,6	2,3
---	-----	-------	-------	-------	-----

	<i>faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni</i>	<i>mlrd. so'm</i>		<i>o'sish sur'ati, %</i>	<i>yakunga nisbatan foiz hisobida</i>	<i>davomi</i>
		<i>2023 y.</i>	<i>2022 y.</i>			
ta'lif sohasidagi xizmatlar	224	536,0	504,5	93,1	5,9	
sog'lijni saqlash sohasidagi xizmatlar	273	109,7	93,2	110,6	1,2	
ijsra xizmatlari	54	164,7	149,4	101,8	1,8	
kompyuterlarni va maishiyl tovarlarni ta'mirlash xizmatlari	99	268,2	218,1	104,4	3,0	
boshqa shaxsiy xizmatlar	104	360,6	280,8	106,6	4,0	
memorchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	115	125,1	108,2	106,7	1,4	
boshqa turdag'i xizmatlar	782	296,9	260,1	105,8	3,3	

Xizmatlar tarkibida eng katta ulush transport (jami xizmatlarning 24,3 foizi) va moliyaviy (23,7 foizi) xizmatlarga to'g'ri keldi.


Shuningdek, aloqa va axborotlashtirish xizmati (122,3 foiz), moliyaviy xizmatlar (120,8 foiz), sog'lijni saqlash sohasidagi xizmatlar (110,6 foiz) o'sish sur'ati yuqori bo'ldi.

**Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha xizmatlar tarkibi,**  
(2023 yil yanvar-sentabr, jamiga nisbatan % da)



Bozor xizmatlarining umumiy hajmidagi savdo xizmatlari 21,1 % eng yuqori ulushni tashkil etadi. Savdo oddiy taqsimlash mexanizmidan iste'molchiga yo'naltirilgan bozor talablarini shakllantirish jarayonlarida faol ishtirokchiga aylandi. Hozirgi vaqtدا, savdo xizmatlari iqtisodiyotda ko'rsatilgan jami xizmatlar hajmining sezilarli qismi hisoblanadi.

**2023 yil yanvar-sentabr oylari da savdo xizmatlari tarkibi, % da**



- Avtomobil va mototsikllarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlarni qo'shgan holda avtomobillar va mototsikllar ulgurji va chakana savdosidan tashqari chakana savdo bo'yicha xizmatlar
- Ulgurji savdo bo'yicha xizmatlar (avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari)
- Avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdo bo'yicha xizmatlar

2023 yil yanvar-sentabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha  
xizmatlar ishlab chiqarish hajmi, mlrd. so‘m

### Transport xizmatlari

2 186,2 mlrd. so‘m



### Moliyaviy xizmatlar

2 139,4 mlrd. so‘m

### Savdo xizmatlari

1 900,5 mlrd. so‘m




### Boshqa xizmatlar

696,4 mlrd. so‘m



### Ta‘lim sohasi xizmatlari

536,0 mlrd. so‘m



### Aloqa va axborotlashtirish

495,1 mlrd. so‘m

### xizmatlari

### Shaxsiy xizmatlar

360,6 mlrd. so‘m



### Kompyuterlarni ta‘mirlash

268, 2 mlrd. so‘m



### Yashash va ovqatlanish xizmatlari

228,9 mlrd. so‘m




### Ko‘chmas mulk bilan

203,8 mlrd. so‘m

bog‘liq

Joriy yil yanvar-sentabr oylari davomida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlar umumiyligi hajmida transport xizmatlari eng katta ulushni egallagan bo'lib, 2 186,2 mlrd. so'mni tashkil etgan, (2022 yil yanvar-sentabr oylarida 1 974,5 mlrd. so'm) nisbatan 103,6 foizni tashkil etgan, shuningdek ko'rsatilgan xizmatlar hajmida moliyaviy xizmatlar 2 139,4 mlrd. so'm (2022 yil yanvar-sentabr oylarida 1 615,4 mlrd. so'm), savdo xizmatlari 1 900,5 mlrd. so'm (2022 yil yanvar-sentabr oylarida 1 566,8 mlrd. so'm) va ta'lim sohasidagi xizmatlar 536,0 mlrd. so'm (2022 yil yanvar-sentabr oylarida 504,5 mlrd. so'm) hissalariga to'g'ri keldi.

**Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ishlab chiqarilgan bozor xizmatlarining o'sish sur'atlari, %  
(2023 yil yanvar-sentabr oylari uchun)**



Shu bilan birga, eng yuqori o'sish sur'atlari aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (22,3 %), moliyaviy xizmatlar (20,8 %) sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar (10,6 %) va qayd etildi.

Respublikamizda kredit siyosati bo‘yicha olib borilayotgan islohotlarning davom ettirilishi moliyaviy xizmatlarning o‘sishiga imkoniyat yaratdi. 2023 yilning yanvar-sentabr oylarida moliyaviy xizmatlarning o‘sish sur’ati 20,8 % ni tashkil etdi.

Zamonaviy bank xizmatlari ko‘rsatish, jumladan “raqamli” banklar va chakana xizmatlar ko‘rsatishga ixtisoslashgan bank bo‘linmalarini tashkil etish uchun innovatsion bank texnologiyalarini joriy qilish, masofadan turib bank xizmatlarini ko‘rsatish, to‘lov tizimini yanada rivojlantirish moliyaviy xizmatlarning jadal rivojlanishiga yordam beradi.

2023 yil yanvar-sentabr oylarida moliyaviy xizmatlar hajmi 2 139,4 mlrd. so‘mga teng bo‘lib, 2022 yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan o‘sish sur’ati esa 120,8 % ni tashkil etdi.

**2023 yil yanvar-sentabr oylarida moliyaviy xizmatlarning tarkibi, % da**



**2023 yil yanvar-sentabr oylarida shahar va tumanlar bo'yicha  
xizmatlar ishlab chiqarish**

	<i>Hajmi mlrd. so'm</i>	<i>O'sish sur'ati, % da</i>	<i>Aholi jon boshiga ming so'mda</i>	<i>O'sish sur'ati, % da</i>
<b>Qoraqalpog'iston Respublikasi</b>	<b>9 015,1</b>	<b>109,2</b>	<b>4 540,9</b>	<b>107,8</b>
Nukus sh.	3 842,7	110,3	11 433,1	108,7
<i>tumanlar:</i>				
Amudaryo	462,6	110,4	2 204,1	108,4
Beruniy	454,5	111,2	2 243,3	109,2
Bo'zatov	53,2	120,3	2 427,4	120,3
Qonliko'l	127,2	111,6	2 385,8	110,1
Qorao'zak	149,6	111,4	2 759,9	110,6
Kegeyli	176,5	113,0	2 371,8	112,1
Qo'ng'irot	1 250,4	100,1	9 255,3	98,8
Mo'ynoq	106,7	110,3	3 186,6	109,3
Nukus t.	192,2	109,3	3 612,2	107,5
Taxiatosh	236,7	126,5	3 097,6	125,6
Taxtako'pir	130,8	108,3	3 363,3	113,3
To'rtko'l	661,3	109,5	2 923,7	107,6
Xo'jayli	391,1	109,5	3 063,0	108,2
Chimboy	274,2	108,4	2 380,6	107,6
Shumanay	122,8	111,3	2 125,5	110,1
Ellikqal'a	382,6	112,3	2 265,1	110,2

Shahar va tumanlar kesimida xizmatlarning eng yuqori o'sish sur'ati Taxiatosh tumani (126,5 %) ga to'g'ri keldi.


Qoraqalpog'iston Respublikasi bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlarning ulushi Nukus shahri (42,6 foiz), Qo'ng'irot tumani (13,9 foiz), To'rtko'l tumani (7,3 foiz) va Amudaryo (5,1 foiz) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi.

Eng past o'sish sur'atlari Qo'ng'irot tumanida (100,1 %), Taxtako'pir tumanida (108,3 %) kuzatildi.

2023 yil yanvar-sentabr oylarida aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi 4 540,9 ming so'mni tashkil qildi. O'sish sur'ati o'tgan yilga nisbatan 107,8 % ni tashkil etdi.

Ushbu ko'rsatkich hududlar o'rtaida Nukus shahrida 11 433,1 ming so'mdan Shumanay tumanida 2 125,5 ming so'mgacha oraliqni tashkil etadi.

**Hududlar bo'yicha aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor  
xizmatlarining hajmi va o'sish sur'ati  
(2023 yil yanvar-sentabr oylari uchun)**



Aholi jon boshiga ko'rsatilgan xizmatlar bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich Nukus shahrida 11 433,1 ming so'mga teng bo'lib, o'sish sur'ati o'tgan yilning shu davriga nisbatan 108,7 % ni tashkil etdi.

Bundan tashqari, aholi jon boshiga ko'rsatilgan xizmatlar hajmining sezilarli o'sishi Taxiatosh (125,6 %), Bo'zatov (120,3 %), Taxtako'pir (113,3 %), Kegeyli (112,1 %) tumanlarida kuzatildi.

Aholi jon boshiga ko'rsatilgan xizmatlarning eng past ko'rsatkichi, Shumanay (2 125,5 ming so'm), Amudaryo (2 204,1 ming so'm) tumanlarida kuzatildi.

**2023 yil yanvar-sentabr oylarida shahar va tumanlar bo'yicha  
savdo xizmatlari hajmi**




Nukus sh.	492,2 mlrd. so'm
To'rtko'l	232,5 mlrd. so'm
Amudaryo	161,9 mlrd. so'm
Ellikqal'a	140,0 mlrd. so'm
Beruniy	137,2 mlrd. so'm
Xo'jayli	126,9 mlrd. so'm
Qo'ng'iroq	125,9 mlrd. so'm
Chimboy	92,5 mlrd. so'm
Taxiatosh	89,8 mlrd. so'm
Nukus t.	60,7 mlrd. so'm
Kegeyli	54,0 mlrd. so'm
Qorao'zak	42,5 mlrd. so'm
Shumanay	40,6 mlrd. so'm
Taxtako'pir	36,1 mlrd. so'm
Qonliko'l	31,0 mlrd. so'm
Mo'ynoq	24,0 mlrd. so'm
Bo'zatov	12,7 mlrd. so'm

Savdo xizmatlari hajmi bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich Nukus shahrida (492,2 mlrd. so'm), To'rtko'l (232,5 mlrd. so'm) va Amudaryo (161,9 mlrd. so'm) tumanlarida qayd etildi.

Savdo xizmatlari eng kichik ko'rsatkich Bo'zatov (12,7 mlrd. so'm) tumanida qayd etildi.

2023 yil yanvar-sentabr oylarida savdo xizmatlari hajmi 1 900,5 mlrd. so'mga teng bo'ldi, o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati 109,8 % ni tashkil etdi.


**2023 yil yanvar-sentabr oylarida shahar va tumanlar bo‘yicha  
savdo xizmatlarining o‘sish sur’ati, % da**



2022 yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan savdo xizmatlarida eng yuqori o‘sish sur’ati Taxiatosh (146,2 %), Nukus shahrida (114,8 %) va Nukus tumanida (109,2 %) kuzatildi.

Eng kam o‘sish sur’ati Taxtako‘pir tumanida (103,8 %) qayd etildi.

**2023 yil yanvar-sentabr oylarida shahar va tumanlar bo‘yicha  
savdo xizmatlari ulushi, % da**




Savdo xizmatlari hajmida eng katta ulushni shahar va tumanlar o'rjasida Nukus shahri (25,9 %) va To'rtko'l (12,2 %) tumanlari egallaydi.

Shahar va tumanlar o'rjasida eng kam ulush Bo'zatov (0,7 %), Mo'ynoq (1,3 %) va Qonliko'l (1,6 %) tumanlariga to'g'ri keladi.

2023 yil yanvar-sentabr oylarida transport xizmatlari hajmi 2 186,2 mlrd. so'mga teng bo'ldi. O'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati 103,6 % ni tashkil etdi.

### **2023 yil yanvar-sentabr oylarida shahar va tumanlar bo'yicha transport xizmatlarining o'sish sur'ati va hajmi**



Transport xizmatlari hajmi bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich Qo'ng'iroq tumanida (851,2 mlrd. so'm) va Nukus shahrida (620,0 mlrd. so'm) qayd etildi.

Transport xizmatlari hajmi bo'yicha eng kichik ko'rsatkich Bo'zatov tumanida (9,1 mlrd. so'm) qayd etildi.